


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**ATROF MUHIT GIGIYENASI KAFEDRASI**



«Tasdiqlayman»  
Shariatxo'yicha prorektor  
SH.A. Boymurodov  
— iyul

**Gigiyena. Tibbiy ekologiya  
MODULINING ISHCHI O'QUV DASTURI  
(3-KURS)**

<b>Ta'lim sohasi:</b>	510000	– Sog'liqni saqlash
<b>Ta'lim yo'nalishi:</b>	5510100	– Davolash ishi
	5111000	– Professional ta'lim

**Toshkent – 2022**

Modulning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil "08" 09 dagi 231-sonli buyrug'ining № 236-sonli hamda 2021 yil "04" 06 dagi 121-sonli buyrug'ining (buyruqning 1-ilovasi) buyruqning 5-ilovasi bilan tasdiqlangan "Gigiyena. Tibbiy ekologiya" modul dasturi asosida tayyorlangan.

**Tuzuvchilar:**

Salomova F.I.	–	TTA, Atrof muhit gigiyenasi kafedrası mudiri, t.f.d.
Sadullayeva X.A.	–	TTA, Atrof muhit gigiyenasi kafedrası dotsenti, t.f.n.
Mirsagatova M.R.	–	TTA, Atrof muhit gigiyenasi kafedrası assistenti

**Taqrizchilar:**

**Ichki taqrizchi:**


G.F. Sherqo'ziyeva	Toshkent tibbiyot akademiyasi Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrası dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent
--------------------	---

**Tashqi taqrizchi:**

M.I. Xasanova	Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti "Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish" kafedrası dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent
---------------	---

Modulning ishchi o'quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy Kengashida muhokama etilgan va tasdiqlangan (2022 yil 29 iyundagi 11-sonli bayonnoma)

Atrof muhit gigiyenasi  
kafedrası mudiri

 F.I.Salomova

1-son davolash fakulteti dekani

 B.T.Xalmatova

O'quv uslubiy bo'lim boshlig'i

 F.X.Azizova

## **1. O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni**

O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti va bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayonida qo'llagan holda, talabani nazariy ma'lumotidan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni laborator asbob uskunalarida bajarishga o'rgatib va ortirilgan ko'nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llashga imkon yaratadi Modul o'quv rejaning klinikagacha modullar blokiga taaluqli. Modulni o'qitish uchun fizika, biologiya, anatomiya, gistologiya, bioximiya modullari nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi.

“Gigiyena. Tibbiy ekologiya” - inson organizmiga ta'sir etuvchi ekologik omillarning ta'sirini o'rganib, olingan natijalar asosida aholi uchun eng muvofiq yashash, o'qish, mehnat qilish, davolanish sharoitlariga, ovqatlanish tartibiga, suv ta'minoti, turar-joylar bilan ta'minlashga doir gigiyenik masalalarini ishlab chiqadi. Bo'lajak umumiy amaliyot shifokorini gigiyenaga doir bilimlariga asoslangan holda aholi o'rtasida sanitar bilimdonlikni oshirish bo'yicha hal qilinadigan tadbirlarni bajarishga, ekologik omillarni inobatga olib aholi o'rtasida sog'lom turmush tarziga doir tushunchalarni shakllantirishga yo'naltiradi, kasalliklarni oldini olishda profilaktika tadbirlarni tashkillashtirish uchun klinik fanlarga zamin yaratadi.

## **2. O'quv modulining maqsadi va vazifalari**

**2.1. Modulning maqsadi** - bo'lajak umumiy amaliyot shifokorlarida gigiyenik fikrlash qobiliyatini shakllantirish, gigiyenik bilimlarning nazariy asoslarini, gigiyena va tibbiy ekologiyadagi asosiy tushunchalar va kategoriyalarini, inson organizmiga atrof muhit va mehnat sharoitlarining o'ziga xos ta'siri xaqidagi tushunchalarni berish, fanga taaluqli bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirilishini ta'minlash va ular ongida aholining salomatlik holatini yuqori darajada bo'lishi va salomatligini ta'minlash tushunchalarini shakllantirish hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishni o'rgatish, kasalliklarni yuzaga kelishida atrof muhit omillaridan ijtimoiy-gigiyenik omillar va mahalliy tabiiy iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda insonni o'rab turgan tashqi muhitning eng muvofiq sharoitlaridan davolash va sog'lomlashtirish maqsadida foydalanishni o'rgatish.

### **2. Modulning vazifalari:**

– “Gigiyena. Tibbiy ekologiya” fani, maqsadi va vazifalari haqida tushuncha berish;

- talabalarining nazariy ma'lumotidan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni bajarish darajasiga qadamma-qadam o'rgatish;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiiq etib, mantiqiy fikrlash va bilimni saqlash darajasini oshirish;

- zamonaviy tekshirish usullari haqida tushuncha berish;

- "Gigiyena. Tibbiy ekologiya" fanining asoslari, inson organizmi bilan atrof muhit o'rtasidagi bog'liqligining asoslari, gigiyenik reglamentlashtirish prinsiplari;

- turli shakldagi patologiyalarning kelib chiqishida tashqi muhitdagi omillarning tutgan o'rni, atrof muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlar va kasalliklarning birlamchi profilaktikasi bilan tanishtirish;

- atrof muhit omillarining holatini tekshirish, uni tahlil qilish va olingan natijalarni gigiyena nuqtai-nazardan baholash (ovqatlanish gigiyenasi, davolash-profilaktika muassasalari gigiyenasi, mehnat gigiyenasi, bolalar va o'smirlar gigiyenasi, radiatsion va harbiy gigiyena sohasida) ni o'rgatish;

- sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishni;

- talabaning mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan standartga mos amaliy ko'nikmalarni assistent-talaba uslubida avtomatizm darajasiga yetkazish.

### ***2.3. Modul bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:***

**6 semestr yakunida**

**3,5 kredit**

**Talaba:**

- fanning maqsadi va vazifalari; davolash sohasidagi vrachning turli kasalliklarni oldini olishdagi vazifalarini; atrof muhit bilan odam organizmi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, atrof muhit omillarining organizmga ta'sir etish xususiyatlarini, ijtimoiy-gigiyenik omillarni, inson salomatligi, ekologiya, ekopatologiyalar va boshqa patologiyalarning eng muhim shakllarini yuzaga kelishidagi atrof muhit omillarining tutgan o'rni *haqida tasavvurga ega bo'lishi;*

- inson ekologiyasining tibbiyotga doir zamonaviy tomonlarini, muammolarini;

- eng ko'p tarqalgan kasallik shakllarining birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasi asoslarini, hamda sog'lom turmush tarzining asoslarini;

- odam organizmiga turli xildagi ijtimoiy-gigiyenik omillarning (ovqatlanish, mehnat, turmush, o'qish va tarbiyalash sharoitlari va b.q.) ta'siri bilan bog'liq holda ularning umumiy gigiyenik ta'riflari va sog'lomlashtirish tadbirlarining asoslarini;

- davolash-profilaktika muassasalariga bo'lgan gigiyenik talablarni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

- ovqatlanishning adekvatligini baholash;
- kasalxona xonalarining mikroqilmini o'rganish va baholash;
- kasalxona xonalari havosining antropogen kimyoviy ifloslanganligini tekshirish va baholash (karbonat angdrid gazi misolida);
- kasalxona xonalarining tabiiy va sun'iy yoritilganlik holatini baholash;
- ichimlik suvining zararsizlantirish sifatini tekshirish va baholash;
- aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari bo'yicha ishlarni o'tkazishni;
- dpm larda davolovchi-himoyalovchi va sanitar va epidemiologik tadbirlarni ta'minlash uchun sharoitlarni baholash;
- bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishini baholash (regressiya shkalasi, kompleks usuli, sentil shkalasi bo'yicha);
- kasalliklarning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi bo'yicha tavsiyalar berishni;

davolash-profilaktika muassasalarida tibbiy xodimlarning salomatligini ta'minlovchi mehnat sharoitlarini tashkil qilish *amaliy ko'nikmalariga (shu jumladan amaliy malakalariga) ega bo'lishi*;

*Talaba quyidagi kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak:*

UK 1<sup>1</sup>. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UK 6. Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UKK 1<sup>2</sup>. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Atrof muhit bilan odam organizmi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, atrof muhit omillarining organizmga ta'sir etish xususiyatlarini, ijtimoiy-gigiyenik omillarini o'rganish;

UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;

---

<sup>1</sup> УК- умумий компетенция

<sup>2</sup> UKK – умумий касбий компетенция

UKK 4. Eng ko'p tarqalgan kasallik shakllarining birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasi asoslarini, hamda sog'lom turmush tarzining asoslarini o'rganish;

UKK 5. Odam organizmiga turli xildagi ijtimoiy-gigiyenik omillarning (ovqatlanish, mehnat, turmush, o'qish va tarbiyalash sharoitlari va b.) ta'siri bilan bog'liq holda ularning umumiy gigiyenik ta'riflari va sog'lomlashtirish tadbirlarining asoslarini o'rganish;

UKK 6. Davolash-profilaktika muassasalarida tibbiy xodimlarning va korxonalarda ishlovchilarning salomatligini ta'minlovchi mehnat sharoitlarini tashkil qilishni o'rganish.

## 1. Modul tuzilmasi

### 3.1. Modul yuklamasi va o'quv ishlar turlari

Yo'nalishlar	Semestr	Umumiy yuklama xajmi	Ma'ruza (soat)	Amaliy mashg'ulot (soat)	Laboratoriya mashg'uloti (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Nazorat turi va shakli	Kredit (xajmi)
Davolash ishi	5-6	126	18	72	-	36	Nazorat turi: YAN shakli: Test	3,5
Professional ta'lim	5-6	126	18	72	-	36		

### 3.2. Ma'ruza mashg'ulotlari

№	Ma'ruza mavzulari	Soatlar hajmi	Egallanishi shart bo'lgan kompetensiyal ar kodi
<b>5-semestr:</b>			
1	Zamonaviy gigiyena va tibbiy ekologiya, ularning tibbiyotdagi o'rni	2	UK 1, UK 2
2	Ovqatlanish va salomatlik	2	UK 1.
3	Davolash-profilaktika muassasalari gigiyenasining umumiy asoslari.	2	UK 1, UK 2
4	Havo muhiti va quyosh radiatsiyasining gigiyenik tavsifi va ekologik ahamiyati	2	UK 1, UK 2
5	Suv salomatlik omili	2	UK 1.
<b>6-semestr:</b>			
1	Bolalar va o'smirlar gigiyenasining umumiy asoslari.	2	UK 1, UK 2
2	Mehnat gigiyenasining umumiy asoslari va mehnatni muhofaza qilish. Ishlab chiqarish muhitining fizik va biologik omillari haqida tushuncha	2	UK 1, UK 2
3	Ishlab chiqarish muhitidagi kimyoviy omillar va davolovchi	2	UK 1, UK 2

	profilaktik ovqatlanish haqida tushuncha.		
4	Tuproq gigiyenasi. Tibbiy ekologiyaning zamonaviy muammolari. Shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzini shakllantirishning gigiyenik muammolari	2	UK 1.
	<b>JAMI:</b>	<b>18</b>	

*Ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish (shakli, turi, jihozlanishi va x.k.)* multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalarda akademik guruhlar o'qimi uchun o'tiladi.

### 3.3. Amaliy (seminar, laboratoriya) mashg'ulotlarini tashkil etish

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Soatlar hajmi		Egallanishi shart bo'lgan amaliy ko'nikmalar (to'yxatdagi raqami)	Egallanishi shart bo'lgan kompetensiyalar (kodi)	O'quv uslubiy ta'minoti
		Nazariy	Amaliy, laboratoriya mash.			
<b>5 semestr</b>						
1	Ovqatlanishning adekvatligini tekshirish va baholash	2	2	1,2,3,4,5,6,7,8,9,10	UK 1,	Videofilm-lar, multi-mediya va o'qituvchi kompyuter dasturlardan, o'qitish metodikasidagi yangi texnologiyalardan mavzular bo'yicha nazariy bilim-larni so'rash-dan foydalaniladi; bakalavrlarining mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash,
2	Bemorlarning ovqatlanishini tashkil qilish va uning gigiyenik nazorati	2		1,2,3,4,5,6	UK 5, UK 6, UKK 5,	
3	Organizmning vitaminlar bilan ta'minlanganligini o'rganish va baholash	2		3,4,5,6,7,9,10	UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6,	
4	Ovqat mahsulotlarining sifatini gigiyenik baholash	2		3,4,5,6,7,8,9	UK 5, UK 6	
5	Ovqatdan zaharlanishlar va ularni oldini olish choralarini	2	2	3,4,5,6,7,9	UK 5, UK 6, UKK	
6	Loyiha materiallari bo'yicha davolash-profilaktika muassasalarini gigiyenik baholash	2	4	3,4,5,6,7,9	UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6,	
7	DPM larda ionlantiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanganda dozimetrik va radiometrik nazorat o'tkazishning asoslari.	2		3,4,5,6,7,9	UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6,	
8	DPM larda ionlantiruvchi nurlanish	2		3,4,5,6,7,	UK 5,	

	manbalaridan foydalanganda xodimlar va patsiyentlarni himoyalash. Himoya prinsiplari.			9	UK 6, UKK 5, UKK 6,	referatlar yozish, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar
9	Kasalxona xonalari mikroiklimning gigiyenik ahamiyati	2	2	3,4,5,6,7, 9	UK 5, UK 6, UKK 5	
10	Kasalxona xonalari havosining antropogen ifloslanishi haqida tushuncha	2		3,4,5,6,7, 9	UK 5, UK 6, UKK 5	
11	Kasalxona xonalari yoritilganligining ahamiyati	2	2	3,4,5,6,7, 9	UK 5, UK 6, UKK 5	
12	DPMda ratsional suv ta'minotining ahamiyati. Ichimlik suvining sifatini yaxshilashning zamonaviy usullari haqida tushuncha.	2		3,4,5,6,7, 9	UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6	
<b>6 semestr</b>						
1	Tashkillashtirilgan bolalar jamoalarida UASH ishining gigiyenik jihatlari (maktab, litsey, kollej)	2	2	3,4,5,6,7, 9	UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6	
2	Bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishini shaxsiy tarzda baholash usullari	4	2	3,4,5,6,7, 9	UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6	
3	Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishini tekshirish va baholash usullari	2		3,4,5,6,7, 9	UK 5, UK 6, UKK 5	
4	Tashkillashtirilgan bolalar jamoalarida bolalarning jismoniy rivojlanishini tekshirish va baholash usullari (jamoat tarzda)	2		3,4,5,6,7, 9	UK 5, UK 6, UKK 5	
5	Maktabda o'qitish va tarbiyalash sharoitlarini gigiyenik optimallashtirish asoslari	4		1,2,3,4, 5,6	UK 5, UK 6, UKK 5	
6	Ishlab chiqarish korxonalarida UASH ishining gigiyenik jihatlari. Ishchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishning xuquqiy asoslari va uni o'tkazish	2		3,4,5,6,7, 9,10	UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6	
7	Changga oid patologiyalar. Ishchi zonasi havosining changlanganligini aniqlash. Turli soha mutaxassisligidagi	2	2	3,4,5,6,7, 8,9	UK 5, UK 6	



shifokorlarning mehnat gigiyenasi				
8	Korxonalarda shovqin va tebranishli vaziyatlarni tekshirish va baholash	2	1,2,3,4,5,6	UK 5, UK 6, UKK 5
9	Kimyoviy omillarni umumzaxarli va maxsus ta'siri haqida tushuncha. Ishchi zonasi havosining kimyoviy moddalar bilan ifloslanganligini tekshirish va baholash (ekspress-usullar)	2	3,4,5,6,7,9,10	UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6
10	Korxonada sog'lomlashtirish tadbirlari	2	3,4,5,6,7,8,9	UK 5, UK 6
11	Favqulotda vaziyatlar va halokatlarda UASH ishining gigiyenik jihatlar. Tabiiy va texnogen halokatlarni bartaraf etishda UASHning o'ri	2	3,4,5,6,7,9	UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6
12	O'zR aholisining eng muhim yuqumli bo'lmagan kasalliklari profilaktikasining gigiyenik jihatlar.	2	3,4,5,6,7,9	UK 5, UK 6, UKK 5
13	DPMda sanitar va epidemiyaga qarshi tartibni ta'minlashning gigiyenik jihatlar.	2	3,4,5,6,7,9	UK 5, UK 6, UKK 5
Jami:			72	

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari jixozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Amaliy mashg'ulotning klinik qismi mavzularga xos ravishda kasalxona bo'limlarida olib boriladi

### 3.4. Amaliy ko'nikmalar

№	Amaliy ko'nikmalar nomi	Soni	Amaliy ko'nikmalarni bajarish uchun zarur ta'minot (jixozlanishi)
1	Ovqatlanish adekvatligini baholash	1	Talabalarni kun davomida iste'mol qilgan taomlarning nomi va ro'yxati Tekshirish o'tkazish uchun kerakli asboblari: termometr, aspiratsion psixrometr, anemometr, termoanemometr, katatermometr shu bilan birga olingan natijalarga muvofiq keladigan San Q va M, Termogidro SO <sub>2</sub> metr, Lyuksmetr, Tarozi, santimetr
2	Kasalxona xonalarining mikroiqlimini o'rganish: havosi haroratini, havo harakat tezligi va namlikni o'lchash va baholash	3	
3	Xonalar havosida antropogen ifloslanganlikni karbonat angidrid miqdori bo'yicha o'lchash va baholash	1	
4	Kasalxona xonalarini tabiiy va sun'iy yoritilganligini aniqlash	2	
5	Ichimlik suvini zararsizlantirish sifatini tekshirish va baholash	1	
6	Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini	1	

	shakllantirish masalalari bo'yicha ishlarni o'tkazish		lenta, dimamometr, regressiya, sentil shkalasi, kompleks sxema usuli shkalasi, jadvallar, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi testlar, kompyuter dasturlari va h.k.
7	DPMLarda davolovchi-himoyalovchi va sanitar va epidemiologik tadbirlarni ta'minlash uchun sharoitlarni baholash	1	
8	Bolalar va o'smirlar jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini baholash	1	
9	Kasalliklarning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi bo'yicha tavsiyalar berish	1	
10	Davolash-profilaktika muassasalarida tibbiy xodimlarning salomatligini ta'minlovchi mehnat sharoitlarini tashkil qilish.	1	

**Amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam bajarilish algoritmi:**

**1.Ovqatlanish adekvatligini gigiyenik baholash tartibi**

<b>№</b>	<b>Ko'nikma turi</b>
1	Organizmning yoshi, jinsi va ish faoliyati xarakteriga ko'ra jadval bo'yicha oziq ovqat moddalari va energiyaga bo'lgan fiziologik ehtiyojini aniqlash
2	1 hafta mobaynida amalda iste'mol qilingan ovqat mahsulotlari haqida ma'lumot olish
3	Ovqat tarkibidagi mahsulotlarning o'rtacha sutkalik miqdorini hisoblash
4	Olingan ma'lumotlarni yig'ib, taomnomaga kiritish (1-jadval)
5	Ovqat mahsulotlarning kimyoviy tarkibi haqidagi jadval bo'yicha ozuqaviy va energetik qiymatlarni hisoblash
6	Olingan natijalarni fiziologik meyorlarga solishtirish va tekshiriluvchining ovqatlanish adekvatligi haqida xulosa qilish

**2.Kasalxona xonalarini mikroiklimini o'rganish. Havoning haroratini o'lchash**

<b>№</b>	<b>Ko'nikma turi</b>
1	Xona havosi haroratining o'rtacha ko'rsatkichlarini o'lchash
	-3-4 daqiqa davomida 1,5 metr balandlikda 3 tadan kam bo'lmagan nuqtalarda (bolalar muassasalarida - 0,8 metr balandlikda) o'lchash ishlarini olib borish
	-Barcha o'lchov natijalari bo'yicha o'rtacha kattalikni hisoblash
2	Vertikal yo'nalish bo'yicha farq (gradiyent) ni o'lchash
	-0,1 va 1,1 metr balandlikda o'lchashlarni o'tkazish
	-o'lchangan qiymatlar orasidagi farqni topish
3	Gorizontaal yo'nalish bo'yicha farq (gradiyent) ni o'lchash
	-Tashqi va ichki devordan 1 metr uzoqlikda havo haroratini o'lchash